



JAMIYATHAQIDAGI QARASHLAR EVOLYUTSIYASI

Jurayev Shoxrux Begmat o'g'li.

TDTTr.U talabasi.

Salimov Baxriddin Lutfullayevich.

Ilmiy raxbar.

Annotatsiya. *Aristotel ta'limoti materializm va idealizm o'rtasida shakllangan. Platonni oldiniga shogirdi bo'lib keyinchalik uni idealizmini tanqid qilgan. Uning fikricha jamiyatni harakatlantiruvchi kuchi "xudodir"..*

Jamiyatni o'zgarishi davlat va siyosatni ham o'zgartiradi. Bu o'zgarishlar inqilobiy, tadrijiy holatlarga bog'liq. Masalan burjua jamiyatiga to'sqinlik qiladigan tuzum bu feodalizm tuzumi edi. Burjua inqiloblari shu feodalizmni yemirib o'rniga burjuaziyaning hokimiyatini siyosiy, iqtisodiy tuzumni o'rnatishga qaratilgan holat burjuaziya inqilobidir..

Kalit so'zlar *Aristotel, Platon qonun, davlat, monarxiya, aristokratiya, demokratiya, hokimiyat.*

Abstract. *Aristotle's doctrine was formed between materialism and idealism. He was a student of Plato and later criticized his idealism. In his opinion, the driving force of society is "god"..*

Changes in society also change the state and politics. These changes depend on revolutionary, progressive circumstances. For example, the system that hindered bourgeois society was the feudal system. Bourgeois revolutions aimed at destroying this feudalism and replacing it with a political and economic system under the rule of the bourgeoisie are bourgeois revolutions.

Keywords *Aristotle, Plato law, state, monarchy, aristocracy, democracy, power.*

Aristotel o'zining ijtimoiy qarashlarida quldorlik tuzumini yoqlab, quldorlar sinfini hukmronligini mustahkamlashga uringan. Garchand Platonni qoralasa (g'oyasini) ham o'zi ham idealistik oqimida edi. Uning fikricha inson jon va tana birligidan iborat. Jamiyatda qul va quldorni bo'lishi tabiiy holatdir. Jamiyat kishilarni uchga bo'ladi. 1) eng boy tabaqa; 2) eng kambag'al tabaqa; 3) o'rtacha boy tabaqa. Kishilar boyligaga qarab uch axloqiy fazilatga egadir. Bulardan, boy va o'rta tabaqa go'zal fazilatlariga egadir. Kambag'al kishilarda go'zal fazilatlar yo'qdir. Uning fikricha davlat o'rta tabaqalar qo'lida bo'lishi kerak. Davlat to'g'risidagi nazariyani yaratib davlatni uch shaklini targ'ib qiladi. 1. Monarxiya-bir kishini



hokimiyati. 2. Aristokratiya-ozchilik hokimiyati. 3. Demokratiya – ko'pchilik hokimiyati. Davlatni eng yaxshi hokimiyati bu o'rta tabaqa hokimiyatidir.

Inqilob qaram va mustamlaka mamlakatlarida burjuaziya inqiloblari milliy mustaqillikka erishish vazifasini ham bajaradi. Burjuaziya inqiloblarining asosiy sabablari- feodalizm davrida rivojlanayotgan yangi, ishlab chiqarish kuchlari bilan feodal ishlab chiqarish munosabatlari o'rtasidagi qarama-qarshilikdir.

Burjua inqilobi XVI asrda boshlangan. Birinchi burjua inqilobi Niderlandiyada bo'lgan. Angliyada 1642-49, Fransiyada 1789-94 bo'lib o'tgan. 1848-49 (Fransiya, Germaniya, Angliya) Yevropaning bir qancha mamlakatlarida bo'lib o'tgan inqiloblar ham burjua revolyusiyasi edi. Shuningdek, 1775-83 yillarda Shimoliy Amerikada bo'lgan mustaqillik urushi ham burjua inqiloblari edi.

Qo'l- faqat mehnat organigina bo'lib qolmay, ayni vaqtda u mehnatning mahsuli hamdir. Demak, inson mehnat tufayli boshqa mavjudotlardan farq qiladi. Ma'lumki, hayvonlar tabiatdagi tayyor narsalarni iste'mol qilish bilan yashaydi, ya'ni u tabiatga instektiv tarzda muvofiqlashadi. Inson aksincha, u o'z mehnati natijasida tabiatga, faol ta'sir etadi, tabiat va uning kuchlaridan o'z manfaatlari yo'lida foydalanadi.

Mehnat jarayonining eng zaruriy sharti ishlab chiqarish qurollarini yaratish masalasi. Inson ishlab chiqarish qurollarisiz moddiy boyliklar ishlab chiqarish imkoniyatiga ega emas. O'z navbatida ishlab chiqarish ham, ijtimoiy hayot ham bo'lmaydi. Ishlab chiqarish uchun esa quyidagi omillarning bo'lishi shart: 1) Mehnat; 2) Mehnat predmetlari; 3) Mehnat qurollari.

Kishilar moddiy boyliklarni ishlab chiqarish uchun o'zaro aloqada va munosabatda bo'lishilari lozim. Har bir odam yolg'iz holda hech bir narsa ishlab chiqara olmaydi. Mehnat kishilik jamiyati taraqqiy etib, rivojlanib borgan sari inson u ham o'zgarib, rivojlanib boradi. Mehnat turlari va qurollari ham takomillashib boradi. Masalan ibtidoiy jamoa davrida toshdan yasalgan qurollar hukmron bo'lsa, bugungi kunda hamma ishni avtomatlar bajarayapti. Ana shunga ko'ra mehnatning tur va usullari ham o'zgardi. Jamiyat faoliyati ham o'zgaradi.

Jamiyat va ma'naviyat. Bozor munosabatlariga o'tish jarayonida ayniqsa, iqtisodiyot va ma'naviyat birligiga erishilsa, rivojlanish shunchalik tez amalga oshadi. Bu sohalar bir-birini inkor etmay, balki, bir-birini to'ldiradi. Ma'naviyati yuksak insonlar jamoa va davlat, birovning mulkiga xiyonat qilmaydi. Ma'naviyati qashshoq kishilar esa buni aksini qiladi. Faqat o'z manfaatini o'ylab ish yuritadi. Iqtisodiyotni rivojlantirish ko'p jihatdan tadbirkorlar sinfining ma'naviyatiga bog'liq. Hozirgi tadbirkor o'ta tejamkor bo'lishi bilan birga, quyidagi yuksak ma'naviyat qirralariga ega bo'lishi zarur:





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



- Vatan oldidagi o'z burchini to'g'ri anglashi;
- savdo-sotiq va o'z korxonasining faoliyatini aniq tasavvur qilishi, o'z sohasining ilmiy va amaliy jihatlarini mukammal bilishi, ma'rifatli bo'lishi;
- dunyoviy bilimlarga va o'z dunyoqarashiga ega bo'lishi;
- o'z sohasiga oid qonun va qarorlarni mukammal bilishi;
- boylikka, shaxsiyatparastlikka, manmanlikka berilmasligi, kamtar, olijanob, sofdil, odob-ahloqli bo'lishi;
- barcha sohalarda halol va haromni ajrata bilishi, mehnatsevar, insonparvar bo'lishi;
- chet el tillaridan ba'zilarini bilishi;
- insofli va adolatli, mard, qat'iyatli, boshlagan ishining natijasini oldindan ko'ra biluvchi bo'lishi.

Biz birgina tadbirkorning yuksak ma'naviyati qirralari to'g'risida to'xtalganimiz bilan, lekin, barcha, jamiyat muammolari bilan shug'ullanadigan insonlar to'g'risida ham shu xislatlarning bo'lishi zarur deymiz. Ming afsuslar bo'lsinki, insonlar orasida jamiyat qirralarini to'g'ri tushunmaydiganlar ham oz emas. Ular jamiyat oldidagi burchlarini ham unutadilar. Aslida, inson burchlari ham bugun o'ylab chiqilgan emas, ular ota-bobolarimizning necha-necha avlodlari tajribasining natijasidir. «Bozor, iqtisodiyoti - degan edi, I.A.Karimov, o'n ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining o'ninchi sessiyasida so'zlagan nutqida — inson ma'naviyatini unutish gunoh bo'ladi. Nuqul pul va foyda ketidan quvsakda, ammo odamlarimiz ruhan qashshoq bo'lib qolishsa-bunday jamiyatning hech kimga keragi yo'q». Shu sababli, ham Respublika mustaqillikka erishgandan buyon o'tmish madaniyati va ma'naviyati, qadriyatlarni tiklash, milliy ongni o'stirish kabi vazifalarni o'z oldiga maqsad qilib olgan. Qaysi jamiyatda ma'naviy jihatlar qadrlanar ekan, o'sha jamiyatda yashayotgan insonlar ijtimoiy tarafdin ko'proq kafolatga ega bo'ladilar. Shu sababli yuksak ma'naviyatli bo'lish borasida tinmay harakat qilinmoqda. Zero, milliy istiqlol mafkurasi ma'naviy, ma'rifiy qadriyatlarga ham bog'liq. Sobiq ittifoq davrida gohida yashirin, gohida ochiq xalqimiz kamsitilib kelindi. «Sizlar o'z-o'zlaringni mustaqil boshqarishga, mustaqil davlat qurishga qodir emassizlar», «Sizlar mute, qaram millatsizlar», «Sizlar uchun biz fikrlaymiz, nazariya yaratamiz, amru farmon beramiz, sizlar esa bazarasiz, xolos» deb kelganlar. Prezidentimiz I.A.Karimov siyosiy byuro a'zolarining bu fikrlarini bekorga misol qilib aytmagan. «Biz yuqoridamiz» deb turib olganlarni fikrlari naqadar hayosizlik



ekanligini tarix ko'rsatayotir. Ma'fura yakka hokimligidan qutulgan xalq o'z ma'naviyati va ma'furasini tiklab sivilizatsiyaning yuqori cho'qqilariga qarab intilib borayotir. Binobarin, taraqqiyot taqdirini ma'naviy jihatdan yetuk insonlar hal qiladi.

Dunyoviy bilimlarni egallash, ma'naviy barkamollikni ham ta'minlashga o'z hissasini qo'shadi. Barkamollik esa insonning ruhiy va ma'naviy salohiyatini, ma'rifiy xislatining oliy nishonasidir. «Biz iqtisodiy o'nglanish, iqtisodiy tiklanish, iqtisodiy rivojlanishni ma'naviy o'nglash, ma'naviy poklanish, ma'naviy yuksalish harakatlari bilan tamomila uyg'un bo'lishini istaymiz va uni to'la tatbiq etamiz. Odamlarimiz omilkor, salohiyatli, oqibatli, halol va ijtimoiy maydonlarda sobit turadigan bo'lsinlar». Hozirgi kunda ham ushbu fikrlarga amal qilingan holda ish olib borilmoqdaki, bu davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylangan. Davlat tomonidan, ma'naviy va ma'rifiy ishlarga yordam qo'lini cho'zayotgan kishilarga, tadbirkorlarga, barcha homiylarga yordam ko'rsatilib, ba'zi imtiyozlar berilayotganining guvohimiz. Ma'lumki, ma'naviy-ma'rifiy sohalarni rivojlanishi uchun avvalo davlatning o'zi homiylilik vazifasini o'tamoqda. Chunki, ma'naviyat va ma'rifat o'ta e'tiborni talab qiladigan sohalardir. Bu masalani hal etishda ham donishmandlarimiz o'gitlariga, ya'ni «Ma'rifat - bu shijoatdir» degan falsafiy fikrlarga amal qilingan holda ish olib borilayotir.

Ma'rifatga ishonganlar ma'rifatli kishilarni e'zozlaydi va ularni o'z vaqtida ijodi uchun shart-sharoit yaratadi. Sababi, ma'rifatga e'tibor bergan jamiyat o'zining yosh avlodlarini unutmaydi. Yosh avlod esa kelajak poydevoridir. Maqsadga erishish, yangi jamiyat qurish shu avlodga bog'liq. Iqtisod va ma'naviyat, ma'rifat, siyosat nima ekanligini ularga o'z vaqtida tushuntirish shu jamiyatda yashovchi keksha va o'rta yoshli ziyolilarning ulkan vazifasidir. Chunki barcha sohalardagi islohotlarning taqdiri shu yoshlarning qo'lidadir. Shu ma'noda iqtisodiy islohotlarda davlat bosh islohotchi ekanligini e'tirof etar ekanmiz, ma'naviy-ma'rifiy sohalarda ham shunday bo'lsa, bu yutuqlar garovi bo'ladi. Ya'ni davlat ma'naviy yo'nalishlarni belgilab berishi ayni muddaodir. Bozor munosabatlari davrida jamiyat uchun tarbiyaning samaradorligiga ayniqsa diqqat-e'tibor qaratilishi zarur. «Ma'naviyat tarbiyaning ajralmas qismi ekan, undan oqilona foydalanish, yoshlarni vatanparvarlik, rostgo'ylik, haqsevarlikka o'rgatish davr talabi. Axloq ma'naviyatning o'zagi. Inson axloqi noyobdir. Axloq avvalo insof, diyonat, adolat tuyg'usi, mehr-shafqat, iymon, halollikdir. Demak, jamiyat a'zolarini axloqli qilib tarbiyalash, o'z iqtisodiyotini o'nglashda muhim omildir. Bu sohada muqaddas dinimiz islomning ham beqiyos o'rni bor. Islom dini — bu ota-bobolarimiz dini, u biz uchun ham iymon, ham axloq, ham diyonat, ham ma'rifat ekanligini unutmaylik. U quruq aqidalar yig'indisi emas.





Ana shu ma'rifatni kishilarimiz jon-jon deb qabul qiladilar va yaxshi o'g'itlarga amal qiladilar. Mehr-oqibatli, or-nomusli, oriyatli bo'lishga, izzat-ehtirom tushunchalariga rioya etishga harakat qiladilar». Bundan tashqari ma'lumki, Hoja Ahmad Yassaviy, Abduholiq /ijduvoni, Hoja Bahovuddin Naqshband, Najmiddin Kubro kabi allomalarimiz qoldirgan tariqatlar ham ma'naviy zaminlarimizni tashkil etadi. Bu tariqatlar insonlarni ma'rifatli, yuksak ma'naviyatlilikka chaqirgan. Umuman olganda, dinimiz xalq ma'naviyatini yuksalishi uchun zamin yaratuvchi beqiyos manbadir. Undan foydalanish bizning vazifamizdir.

REFERENCES:

- [1] Salimov, B.L. (2023). Negative consequences of science and technology development. International Conference Law, Economics and Tourism sciences in the modern world. 5(1), p. 5-10.
- [2] Salimov. B.L., Abdimurodov, N.Sh., Savriddinov, S.S. (2023). The Development of Automotive and Road Engineering Industries in a Deterministic Relationship. (2023). WEB OF SYNERGY: International Interdisciplinary Research Journal. 2(2), Page 338-341.
- [3] Salimov, B.L., Abdullaev, U.K., Makhkamov, M.R. (2023). The Development of the Automotive Industry and Road Construction are Interdependent. International Journal of Trend in Scientific Research and Development (IJTSRD). 1(2), Page 330-332.
- [4] Salimov, B.L., Allamurodov, K.B., Toshkhojaev, K.K. (2023). Prospects of Development of Communication and Transport System in Uzbekistan. WEB OF SYNERGY: International Interdisciplinary Research Journal. 2(2), Page 342-346.
- [5] Salimov, B.L., Narzullaev, J.A., Sodikov, T.I. (2023). The Social Significance of Roads and Ongoing Road Construction Work. International Journal of Trend in Scientific Research and Development (IJTSRD). 1(2), Page 311-313.
- [6] Salimov, B.L. (2024). The social and philosophical importance of engineering thinking in engineering personnel training. Международная научно-практическая конференция «Устойчивое развитие транспорта: экономика, трансформация, логистика, ESG повестка». p. 100-112.
- [7] Salimov, B.L. (2023). The Importance of Sea Transport in the Communication System. Web of synergy: International Interdisciplinary Research Journal. 2(1), p. 272-275.
- [8] Salimov, B.L. (2023). The Influence of the Transport and Communication System on Social Relations. Web of Semantic: Universal Journal on Education. 2(2), p. 209-212.